



NEGA XALQARO HUQUQ ISHLAMA YARTI?

Sadullayeva Farida Farxod qizi

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti 3-kurs talabasi

Аннотация: *Ushbu maqola xalqaro huquq nima ekanligi, xalqaro huquq normalariga davlatlar amal qilmagan taqdirda kelib chiqadigan salbiy holatlar, xalqaro huquq normalariga davlatlar amal qilishini nazorat etuvchi “Xalqaro tashkilotlar” ning kuchsizligi hamda hozirda asosiy muammoga aylangan Falastin-Isroil urushining kelib chiqish sabablariga bag’ishlangan.*

Калит so’zlar: *Xalqaro huquq, konvensiya, bitim, deklaratsiya, norma, ustav, inson huquqlari.*

ПОЧЕМУ МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО НЕ РАБОТАЕТ?

Аннотация: *Статья посвящена тому, что такое международное право, негативным ситуациям, возникающим при несоблюдении государствами норм международного права, слабости «международных организаций», следящих за соблюдением государствами норм международного права, а также причинам палестино-израильской войны, которая в настоящее время стала главной проблемой.*

Ключевые слова: *международное право, конвенция, соглашение, декларация, норма, хартия, права человека.*



WHY IS INTERNATIONAL LAW NOT WORKING?

Abstract: *This article is devoted to what international law is, the negative situations that arise when states do not comply with the norms of international law, the weakness of "International Organizations" that monitor the compliance of states with the norms of international law, and the causes of the Palestinian-Israeli war, which has now become the main problem.*

Keywords: *International law, convention, agreement, declaration, norm, charter, human rights.*

Xalqaro huquq – xalqaro muloqotdagi davlatlararo va boshqa qatnashuvchilar (subyektlar) o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi ommaviy yuridik prinsiplar va normalar majmui. Davlat ichki huquqidan farqli ravishda xalqaro huquq obyektini o‘z mazmun mohiyati jihatdan alohida davlat vakolatidan tashqariga chiquvchi xalqaro, aniqrog‘i, davlatlararo munosabatlar hisoblanadi. Davlat ichki huquqidan farqli ravishda xalqaro huquq normalarini yaratish va bajarilishini ta‘minlash bilan shug‘ullanadigan qonun chiqaruvchi organlar yo‘q. Xalqaro huquqning asosiy sub‘yektlari davlatlar hisoblanadi. Ularning o‘zaro kelishuvi bilan vujudga keladigan xalqaro huquq normalari davlatlarning kelishilgan irodasini ifoda etadi. Xalqaro huquqning o‘ziga xos xususiyati ana shundadir. Turli xalqaro shartnomalar, bitimlar, kelishuvlar, konvensiyalar, deklaratsiyalar, BMTning hujjatlari Xalqaro huquqning normativ bazasi hisoblanadi.

Xalqaro ommaviy huquq xalqaro shartnomalar huquqi, diplomatik va konsullik huquqi, xalqaro tashkilotlar huquqi, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq, xalqaro iqtisodiy huquq, xalqaro ekologiya huquqi, xalqaro jinoyat huquqi, xalqaro dengiz huquqi, xalqaro havo huquqi, xalqaro kosmik huquqi kabi sohalarni o‘z ichiga oladi. Xalqaro huquqning umum e‘tirof etilgan tamoyillari bor. Ular



xalqaro huquqni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi universal majburiy me'yorlardir. Xalqaro huquqning aksariyat tamoyillari BMT Ustavining 2-moddasida bayon etilgan. Ular BMT Ustaviga muvofiq, davlatlar o'rtasida do'stona munosabatlar va hamkorlikka taalluqli xalqaro huquq tamoyillari to'g'risidagi 1970-yilgi Deklaratsiyasida hamda Yevropa Xavfsizlik va hamkorlik kengashi (YEXHK)ning Yakunlovchi hujjatida batafsil yoritib berilgan. Bular quyidagilardir: kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik; xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish; davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik; davlatlarning xalqaro hamkorligi; davlatlarning suveren tengligi; xalqlar va millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi; davlatlarning xalqaro majburiyatlarini vijdonan bajarishi; chegaralar daxlsizligi; davlatlarning hududiy yaxlitligi; inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilishdir. Jahon hamjamiyati oldida turgan umumbashariy muammolarni hal etish zaruriyatini ifoda etuvchi yangi tamoyillar ham shakllanmoqda...

Davlatlar tomonidan xalqaro huquq normalariga qat'iy rioya qilinsagina dunyoda tinchlik abadiy hukm surishi mumkin. Ammo hozirgi kun miqyosida davlatlar tarafidan xalqaro huquqqa rioya qilinish darajasi ancha past.

Xo'sh xalqaro huquq normalariga davlatlarning rioya qilmasligiga nimalar sabab bo'lmoqda?

1. **Davlatlarning o'zaro manfaatlari:** Ba'zi davlatlar xalqaro huquq qoidalarini o'z manfaatlariga mos kelmaydigan hollarda bajarmasliklari mumkin.
2. **Ishonch va hamkorlik yetishmasligi:** Davlatlar o'rtasida ishonch va hamkorlik yetishmasa, xalqaro huquqning samarali ishlashi qiyinlashadi.
3. **Qoidalarni bajarmaslik:** Ba'zi davlatlar xalqaro huquq qoidalarini bajarmaslik yoki ularni buzish orqali o'z manfaatlarini ko'zlaydilar.



4. **Xalqaro tashkilotlarning kuchsizligi:** BMT kabi xalqaro tashkilotlar ba'zan o'z vazifalarini bajarishda cheklovlarga duch kelishadi, bu esa xalqaro huquqning samaradorligini pasaytirishi mumkin.
5. **Ijtimoiy va siyosiy omillar:** Ijtimoiy va siyosiy muammolar, urushlar yoki inqirozlar xalqaro huquqning ishlashiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Avvalo xalqaro huquqning samarali ishlashi uchun davlatlar o'rtasida hamkorlik, ishonch va hurmat muhimdir. Bundan tashqari davlatlarning xalqaro huquqqa amal qilishini ta'minlash kerak.

Xalqaro huquqqa davlatlar tomonidan amal qilinishini ta'minlash uchun bir qator usullar mavjud: Xalqaro tashkilotlar orqali monitoring, diplomatik muloqot, qonuniy majburiyatlar, sanksiyalar va jazolar, ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik fikri, ta'lim va tarbiya, xalqaro sudlar va arbitraj.

Xo'sh qaysi tashkilotlar davlatlarning xalqaro huquq qoidalariga rioya qilishini nazorat qilish va baholash uchun mexanizmlarga ega? Bunday huquqqa BMT, Yevropa Ittifoqi kabi xalqaro tashkilotlar ega. Agar ushbu tashkilotlar kuchsiz bo'lsachi? Shunday bo'lgan taqdirda qanday oqibatlar kelib chiqish mumkin?

Xalqaro tashkilotlarning kuchsizligi quyidagi bir qator salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin:

1. **Xalqaro nizolarni hal qilishda qiyinchiliklar:** Kuchsiz xalqaro tashkilotlar nizolarni hal qilishda samarali vosita bo'lmaydi, bu esa urushlar yoki mojarolarni kuchaytirishi mumkin.
2. **Xalqaro huquqning buzilishi:** Agar xalqaro tashkilotlar o'z vazifalarini bajarishda kuchsiz bo'lsa, davlatlar xalqaro huquq qoidalarini buzishlari osonlashadi, bu esa global tartibsizlikka olib kelishi mumkin.



3. **Ishonchning pasayishi:** Davlatlar o'rtasida ishonch pasayishi, chunki kuchsiz tashkilotlar o'zaro kelishuvlarni amalga oshirishda yordam bera olmaydi.
4. **Sanksiyalar va jazolarni qo'llashda cheklovlar:** Xalqaro tashkilotlar kuchsiz bo'lsa, xalqaro jamoatchilik tomonidan sanksiyalar yoki jazolarni qo'llash qiyinlashadi, bu esa huquqiy javobgarlikni kamaytiradi.
5. **Ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikka tahdid:** Xalqaro tashkilotlarning kuchsizligi ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muammolar keltirib chiqarishi mumkin, bu esa global iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatadi.
6. **Inson huquqlarining buzilishi:** Kuchsiz xalqaro tashkilotlar inson huquqlarini himoya qilishda samarali bo'lmasligi, bu esa inson huquqlarining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Bu omillar xalqaro tashkilotlarning kuchsizligi global muammolarni hal qilishda qiyinchiliklar yaratadi va xalqaro hamkorlikni zaiflashtiradi. Xalqaro hamkorlikning zaiflashishi diplomatik aloqalarning yomonlashuviga sabab bo'ladi. Davlatlar o'rtasida munosabatlardagi keskinlik bora-bora urushni keltirib chiqarishi mumkin.

Ayni damda davlatlar o'rtasida hududga egalik qilish masalasida ko'plab urushlar bo'lyapti. Davlatlar yana qutblarga birlashyapti. Go'yoki uchinchi jahon urushi boshlanayotganek. Inson qadr-qimmati toptalyapti. Insonning yashashga bo'lgan huquqining biror tarzda cheklanishi mumkin emasligi hech kimning hayoliga kelmayapti. Kundan – kunga qurbonlar soni ortmoqda. Yer yuzi yana qonga bulg'anyapti. Insoniyat hayotiga bir umrlik qora sahifa sifatida ikkita jahon urushi kanga o'xshaydi. Ikkinchi jahon urushidan keyin davlatlar endi rivojlanayotganda uchinchi jahon urushining boshlanishi ortiqcha. Hamma narsadan ustun ko'riladigan inson huquqlarining arzimagan hududga egalik qilish



doirasida cheklanishi, oyoq osti qilinishi umuman xalqaro huquq normalariga mos emas. Agar davlatlar tinchlikni ta'minlash maqsadida tuzilgan xalqaro shartnomalar, konvensiyalar, paktlarga amal qilmasa unda ularning tuzilishi, davlatlar tomonidan qabul qilinib ratifikatsiya qilinishi nimaga kerak. Ana shunday amal qilinmaydigan, faqat nomigagina bor bo'lgan, yuridik jihatdan esa biror kuchga ega bo'lmagan shartnoma, konvensiyalarni tuzish uchun ham qanchadan – qancha mablag' sarf qilinadi. Hech bir davlat tomonidan amal qilinmaydigan xalqaro huquq normalari, shartnoma va konvensiyalarni qabul qilgandan ko'ra, unga ketadigan mablag'ni yer yuzidagi aholini sog'lomlashtirish va ularga bilim berishga sarf qilgan ma'qul menimcha.

Hozirda yuz berayotgan Falastin-Isroil urushiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 1947 - yil noyabrda BMT Falastin hududida arab va yahudiy davlatlarini tashkil etish haqida rezolyutsiya qabul qiladi. Oradan 5 oy o'tgach Isroil nomi bilan yahudiylar davlati tuziladi. Biroq rezolyutsiyani na Falastindagi arablar va na atrofda arab davlatlari tan olishmaydi. O'rtada urush boshlanadi va arablar yengiladi. O'shandan buyon ikki o'rtadagi mojaro davom etmoqda va Isroil Falastin yerlarini asta-sekinlik bilan egallab kelmoqda.

Yaqin tarixda Falastin xalqiday qiynalgan va xo'rlangan xalq bo'lmasa kerak. 1947 -yilda BMT rezolyutsiyasi bilan tasdiqlangan va oradan 41 yil o'tib tashkil etilgan bu davlat aholisi 76 yildan buyon qo'shni Isroil tomonidan ezib kelinadi.

O'tgan yillar mobaynida Isroil Falastinning juda ko'p joylarini kuch bilan tortib oldi. Isroilning bu bosqinchilik siyosati bugun ham to'xtagani yo'q. Ular hozir ham Falastinga tegishli bo'lgan qaysidir hududdan arablarni quvib yuborib, u yerda isroilliklar uchun turar joylar qurmoqda.



Garchi BMT bir paytlar qabul qilgan rezolyutsiyasida Falastin davlatining chegaralarini aniq ko'rsatib bergan bo'lsa-da, hanuzgacha bu davlat o'z yerlariga egalik qila olmayapti.

Bundan tashqari, qanchalik g'alati eshitilmasin, BMTning o'zi ham bu davlatni tashkilot safiga to'laqonli a'zo qilgani yo'q. Falastin hozirda BMTda faqat kuzatuvchi maqomiga ega.

Ana shu o'rinda Isroilning falastinliklarga qilayotgan zo'ravonligi sabablari birmuncha ayon bo'ladi. Axir BMTday tashkilot ko'ksidan itargan Falastinni Isroil nega ezg'ilab tashlamasin?!

Hozirgi Falastin va Isroil davlatlari joylashgan hudud azaldan Falastin deb atalgan. Bir necha asr davomida Usmoniylar imperiyasi tarkibida bo'lgan Falastin Birinchi jahon urushi tugagandan so'ng Britaniya mustamlakasiga aylanadi. Ayrim yahudiylarning tarixiy vataniga qaytishi ana shunda boshlangan.

Keyinchalik, Ikkinchi jahon urushi paytida Gitler Germaniyasi tomonidan o'tkazilgan qirg'inlardan qochgan yahudiylarning bir qismi ham Falastinga ko'chib keladi. O'sha kezlarda bu yerda yashovchi arablar «tarixiy vatani»ga ko'chib kelayotgan yahudiylarga umuman qarshilik qilmaydi.


Urush tugagandan keyin ham yahudiylar Falastinga ko'chib kelishda davom etadi. Shundan so'ng 1947 yilda BMT hududda arablar va yahudiylarning davlatini tuzish haqida o'z rejasini e'lon qiladi.

O'shanda BMTga Falastinda bitta davlat tuzish taklifi ham beriladi. Biroq tashkilot yagona davlat tuzilsa yahudiylar va arablar o'rtasida qirg'inbarot boshlanib ketadi degan xulosaga keladi va taklif rad etiladi.



Yahudiylar BMTning rejasiga rozi bo'lishadi. Arablar esa Falastinning bo'linishiga qarshi chiqishadi. BMTda 1947-yil 29- noyabrda Falastinni ikkiga bo'lish haqidagi rezolyutsiya qabul qilindi.

Shundan so'ng aholining joylashuviga qarab yahudiylarga 14,1 ming kilometr kvadrat, arablarga esa 11,1 ming kilometr kvadrat hududni berish va Falastin o'rnida ikkita davlat tuzish haqida qaror qabul qilinadi.



BMT rezolyutsiyasi qabul qilingandan salkam olti oy o'tib, 1948 yil 14 may kuni David Ben-Gurion tomonidan Isroil davlati tuzilgani e'lon qilinadi. Bunga rozi bo'lmagan Misr, Suriya, Transiordaniya (Iordaniyaning o'sha paytdagi nomi), Livan, Iroq kabi arab davlatlari Isroilga bostirib kirishadi.

Ular Falastin arablarniki bo'lishi shart, yahudiylar istagan yerlariga ketishlari mumkin degan talab qo'yishadi. Shu bilan birga Falastinga chegaradosh



bo'lgan yuqoridagi davlatlar Falastin yerlari o'zlariga tegishli ekanini ham da'vo qilishadi.

O'sha paytda Isroilning ortida G'arb davlatlari turgan edi. Qisqa muddatda ular Isroilni tish-tirnog'igacha qurollantirishadi.

Isroil barcha hujumlarni qaytaradi va 1949 yil iyulga kelib o'z hududiga bostirib kirgan arab qo'shinlarini yengadi. Oqibatda urushda g'olib chiqqan Isroil Falastinning 1 300 kvadrat kilometr hududini bosib oladi.

Falastinning qolgan hududini Misr (G'azo sektorini) va Iordaniya (Jordan daryosining g'arbiy qirg'og'i va Sharqiy Quddusni) o'z nazoratiga oladi.

1947-1949 yillarda bo'lib o'tgan bu urushni Isroil mustaqillik uchun bo'lib o'tgan urush deb ataydi. Arablar uni Naqba – Falokat deb atashadi. Aynan mana shu urushdan so'ng Falastin xalqining fojiasi boshlanadi.

Aksariyat tarixchilar 1947 - yilda arab davlatlarining Isroilga bostirib kirishi xatolik bo'lganini aytadi. Ularning fikricha, arab davlatlari Isroilga bostirib kirmasdan Falastin davlatining shakllanishida, BMT belgilab bergan chegaralarini o'rnatishda va boshqa ishlarda yordam berganda holat boshqacharoq kechishi ham mumkin edi.

Shoshmashosharlik bilan Isroilga hujum qilinishi va mag'lubiyatdan keyin ham qo'shni arab davlatlarining Falastinga yordam berish o'rniga uning hududini o'z nazoratiga olishi masalani chigallashtirib yuboradi.

Birinchi urushdan so'ng Isroil dunyoning turli burchaklaridan kelayotgan yahudiylarni qabul qilishda davom etadi va davlatchiligini mustahkamlaydi.

Arab davlatlarining aksariyatida hokimiyat almashadi Britaniya yoki Fransiya bilan yaxshi aloqalarda bo'lgan eski hukmdorlar o'rniga yoshlari keladi.



Shundan so‘ng arab davlatlarining ayrimlarini kapitalistik dunyodan ko‘ra sotsializm «ustuni» bo‘lgan SSSR bilan yaxshi aloqa o‘rnatishga uringan rahbarlar boshqara boshlaydi.

Jumladan, harbiy ta‘limni SSSRda olgan Misr prezidenti Jamol Abdul Nosir (1918-1970) va Suriya rahbari Hafiz Asad (1930-2000) sovetlar bilan do‘stona aloqada edi.

Jamol Nosir Misr rahbari bo‘lar ekan, Isroilning bosqinchilik siyosatini keskin tanqid qila boshlaydi. O‘shanda u «Imperializm qo‘rg‘oni bo‘lgan Isroil dengizga cho‘ktiriladi», deb chiqadi.

1967 - yil bahorda Misr va Suriya Isroil bilan chegaralariga ko‘p sonli harbiylarini to‘play boshlaydi. Isroil buni hujumga tayyorgarlik deb hisoblaydi va o‘sha yili 5 - iyun kuni ogohlantiruvchi zarba beradi. Shu tariqa birinchi urushdan rosa yigirma yil o‘tib yana Arab-Isroil urushi boshlanadi.

Birinchi urushdan farqli ravishda bu urush uzoq davom etmaydi. Isroil olti kun ichida arab koalitsiyasining harbiy-havo kuchlarini yakson qilib tashlaydi. Shu sababli bu urush tarixga «Olti kunlik urush» nomi bilan kiradi.

Shundan so‘ng Isroil 1949 - yildan buyon Iordaniyaga tegishli bo‘lgan Iordan daryosining g‘arbiy sohili, Misr nazoratida bo‘lgan G‘azo sektori va Sinay yarimoroli, Suriyaning Jo‘lan tepaliklari hamda Sharqiy Quddusni ham egallaydi.

1967 yilgi Olti kunlik urushni arablar Naqsa — Takror deb atashadi. Bu safargi mag‘lubiyat oldingisidan ham alamliroq bo‘ladi. Yana yuz minglab falastinlik arablar uy-joylarini tashlab qochishga majbur bo‘ladi.

Bu urushda Isroil bor-yo‘g‘i 800 nafarga yaqin harbiylarini yo‘qotadi. Arab davlatlari esa 15 mingga yaqin askaridan ayriladi. Bundan tashqari, Isroil bosib



olingan Falastin yerlari hisobidan o‘z hududini urushgacha bo‘lgan davrga nisbatan uch baravarga kengaytirib oladi.



Falastin ikkiga bo‘lingandan boshlab Isroilga tekkan hududda yashovchi arablar uning hududini tark eta boshlaydi va qochoqlarga aylanadi. Shuningdek, ikkita urushdan so‘ng Isroil tomonidan bosib olingan hududlardagi arablar ham qochoqlarga aylanishadi.

Keyinchalik qabul qilingan BMT rezolyutsiyasiga muvofiq, o‘shanda Isroil o‘ziga tekkan hududda yashovchi arab qochoqlariga uylariga qaytishlariga ruxsat berishi yoki ularga tovon to‘lashi kerak edi. Biroq isroilliklar bundan bosh tortadi va hanuz shu masala ham mavhumligicha qolib kelyapti.



Bugun millionlab arablar Isroildan o‘z yerlarini da’vo qilishadi. Biroq o‘zini yahudiy xalqining milliy o‘chog‘i deb hisoblaydigan Isroil bu da’volarni rad etadi va arab qochoqlarni o‘z hududiga kiritmoqchi emas.

Xo’sh nega BMT tomonidab qabul qilingan rezolyutsiyaning yuridik kuchi yo’q? Nega Isroil ushbu rezolyutsiyaga amal qilmayapti? BMT “qo’g’irchoq” tashkilotmi? Nima uchun Isroil hozircha Falastindan tortib olgan yerlarini qaytarib bermoqchi emas, axir u Falastinning hududiku?

Bugun G‘arb davlatlari Falastinga nisbatan ikki xil standartlarni qo‘llamoqda. Ular bir tarafdin Yaqin Sharqda tinchlik o‘rnatilishini xohlashlarini aytishsa, ikkinchi tomondan hanuzgacha Falastinning mustaqilligini tan olmay kelishmoqda. Buning ustiga ularning o‘z elchixonalarini Tel-Avivdan Quddusga ko‘chirishlari muammoni battar chigallashtirmoqda.

Falastin mustaqilligini dunyoning 138 ta davlati tan olgan. Jumladan, Osiyo va Afrikaning qariyb barcha davlatlari, shuningdek sobiq ittifoq respublikalari (Latviya, Litva va Estoniyadan tashqari) va Sharqiy Yevropa davlatlari.¹

AQSh, Kanada, Meksika, Avstraliya, Britaniya, Fransiya, Ispaniya, Portugaliya, Italiya va G‘arbiy Yevropadagi boshqa davlatlar tan olmagan. Ana shu joyda AQSh boshchiligidagi G‘arb davlatlari Falastinga nisbatan ikki xil siyosat olib borayotgani oydinlashadi.

Ya’ni bir tomondan Yaqin Sharqda tinchlik o‘rnatilishini xohlashlarini aytishadi. Ikkinchi tomondan Falastinning mustaqilligini tan olishmaydi. Arab davlatining o‘z chegaralariga ega bo‘lishini, BMTga to‘laqonli a‘zo bo‘lishini umuman xohlashmaydi.

¹ <https://www.ozodlik.mobi/>



Bugun Falastin BMTda faqat kuzatuvchi maqomiga ega. Falastin mustaqilligini tan olgan davlatlar agar u BMTga to‘laqonli a‘zo bo‘lsa va o‘z hududlariga egalik qilsa, Yaqin Sharqda uzoq kutilgan tinchlik o‘rnatiladi, degan fikrda.²

Falastin mustaqilligini tan olmagan davlatlar esa aksincha, agar Falastin BMTga to‘laqonli a‘zo bo‘lsa, mintaqada notinchlik battar keskinlashadi deb noto‘g‘ri fikrlab yana ikki qutbga bo‘linishni boshlamoqda. Agar uchinchi jahon urushi boshlansa, ikkita jahon urushidan keyin endi o‘zini tiklayotgan insoniyat umuman buning natijalarini ko‘tarolmaydi. Oddiy bir arzimagan hududga egalik qilish uchun bo‘lgan urushda nechi millionlab begunoh insonlar, hattoki hali yorug‘ dunyoni ko‘rishga ulgurmagan go‘daklar qurbon bo‘lmoqda. Insonlar hududdan to‘yishi uchun yana qancha begunohlar qoni to‘kilishi kerak bilmadim. Ammo bilyapmanki, ayni damda inson huquqlari toptalyapti, xalqaro tashkilotlarning qarorlari esa davlatlar tomonidan “bir tiyinga” ham olinmayapti.

Yakuniy xulosa shuki, Falastin davlat sifatida dunyo davlatlari va BMT tarafidan tan olinishi va BMT ga to‘laqonli a‘zo sifatida qabul qilinishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xalqaro ommaviy huquq: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik / Ochilov B.E., Odilqoriyev X.T.; O‘zbekiston Respublikasi Adliyavazirligi, Toshkent davlat yuridik instituti. - Toshkent Adolat, 2007. -487 b
2. Xalqaro ommaviy huquq. Darslik / A.X.Saidov va boshqalar. –T.: TDYU nashriyoti, -2023, -952 b.

² <https://m.kun.uz/news>



3. Vizual xalqaro huquq. Darslik. Mas'ul muharrir y.f.d., dotsent. D.Sh. Umarxanova // A.I. Umirdinov., A.M. Xakimov., H.M. Radjapov tarjimasi.- Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish, 2021-y. - 328 bet.

Foydalanilgan internet saytlari

1. <https://tarix.sinaps.uz/>
2. <https://uz.wikipedia.org/>
3. <https://kun.uz/news>
4. <https://www.amerikaovozi.com/>
5. <https://daryo.uz/>